"KONSTITUTSIYA - ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI"

Abdurasulova Durdona Halim qizi
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi .
E.mail: durdonaabdurasulova089@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Kastitutsiyasining qachon qabul qilinganligi va mohiyati, uning qonun - qoidalari va inson huquq erkinliklari haqida malumotga ega bo‘lamiz shuningdek Konstitutsiyaning fuqarolar hayotidagi o‘rni qandayligini va qanaqa o‘zgartirishlar kiritilganligini bilib u haqida chuqurroq bilimlarni egallaymiz .

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasining 1-Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi, qonun ,qoida , Oliy Kengash, umumxalq.

Аннотация: В этой статье мы узнаем о том, когда была принята и существо Конституции Республики Узбекистан, ее законах и правах человека, а также узнаем, какова роль Конституции в жизни граждан и какие изменения были внесены, и получим более глубокие знания о ней .

Ключевые слова: 1-я Конституция Республики Узбекистан, новая Конституция Республики Узбекистан ,закон , правило, Верховный Совет, всенародный.

Annotation: in this article we will have information about when and the essence of the Castituto of the Republic of Uzbekistan was adopted, its laws and human rights freedoms and also we will acquire deeper knowledge about it knowing what is the role of the Constitution in the life of citizens and what amendments have been made .

Keywords: 1st Constitution of the Republic of Uzbekistan, new Constitution of the Republic of Uzbekistan, law ,rule , supreme council, general.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining 1 – Konstitutsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib u 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan.

1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e’lon qilindi. „O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida“gi Konstitutsiyaviy qonun (1991-yil 31-avgust) ushbu Konstitutsiya uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. Ushbu sessiya prezident

ISSN 3030-3907

Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat birlashmalari, korxonalar va xo‘jaliklarning rahbarlari, huquqshunos olimlar va mutaxassislar kirgan.

Oliy Kengashning 10-sessiyasida komissiya tarkibi qisman yangilangan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha matbuotda e’lon qilinib, keng muhokama etilgan. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq muhokamasi yakunlarini ko‘rib, loyihani tuzatib va ma’qullab Oliy Kengash sessiyasida ko‘rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama-modda muhokama etilgandan so‘ng qabul qilingan.GOLUBIKA o‘simligi Vereksdoshlar oilasi ,Vaksinium turkumiga kiritilgan bargini to‘quvchi buta o‘simlik hisoblanadi.Golubika o‘simligining mevasi jahon bozorida eng qimmatli rezavor mevalar qatoriga kiradi.

Konstitutsiyaning ahamiyati:

Mustaqil O‘zbekistonning davlat mustaqilligi va demokratik tuzumining huquqiy asosini yaratdi.

Inson huquqlari, xalq hokimiyati, hokimiyatlar bo‘linishi tamoyillarini belgiladi.

Keyingi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar uchun poydevor bo‘ldi.

Konstitutsiyaning tuzilishi

Mustaqilligi, suverenitet, davlat tili, hududiy yaxlitlik va hokazolar) O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat edi:

1. Kirish qismi (Preambula)

– O‘zbekiston xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini e’lon qiladi,

– Mustaqillik, demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligi tamoyillarini tasdiqlaydi.

2. 6 ta bo‘lim:

1. Umumiy qoidalar
(davlat mustaqilligi,suverenitet,davlat tili,hududiy yaxlitlik va hokazolar)
2. Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari
(shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar)
3. Jamiyat va shaxs
(oila, ta’lim, ilm-fan, madaniyat, jamoat tashkilotlari)
4. Davlat hokimiyati tuzilishi


(Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, sudlar, mahalliy hokimiyat organlari)

5. Ma’muriy-hududiy tuzilish
(respublika, viloyatlar, tumanlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maqomi)

ISSN 3030-3907

6. Konstitutsiyani o‘zgartirish tartibi

3. 128 ta modda (ba’zi manbalarda 126 yoki 128 modda deb keltiriladi – bu tahrirga qarab farq qiladi)



1-rasm . O‘zbekiston Respublikasining 1- Kastitutsiyasi

Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi

Har bir davlatning mustaqilligi va taraqqiyoti uning asosiy qonuni — Konstitutsiyada o‘z ifodasini topadi. Konstitutsiya — bu xalq irodasining timsoli, davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining huquqiy poydevoridir. U nafaqat davlat hokimiyati organlari faoliyatini belgilaydi, balki insonning erkin va farovon hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan huquq va erkinliklarni kafolatlaydi.

Konstitutsiyada belgilangan inson huquqlari, so‘z va e’tiqod erkinligi, ta’lim olish huquqi, mehnat qilish va erkin yashash huquqi – bularning barchasi fuqarolarning farovon hayotini ta’minlashga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Yangi konstitutsiya 65 foizga yangilangan[1][2].

KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR

Asosan saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek:

2021-yil 8-fevral kuni „O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida“gi qonun qabul qilindi. O‘zgartirishga ko‘ra, O‘zbekistonda sud tizimi quyidagilardan iboratligi belgilandi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;

harbiy sudlar;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;


Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari;

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari;

tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;

tumanlararo ma’muriy sudlari.



2 -rasm.O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi.

ISSN 3030-3907

Tuzilishi:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob, 155 moddadan iborat[4].

1-bo‘lim (I-IV bob, 1-18-moddalar) „Asosiy prinsiplar“ deb nomlangan.

2-bo‘lim (V-XI bob, 19-64-moddalar) „Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari“ deb ataladi.

3-bo‘lim (XII-XV bob, 65-82-moddalar) „Jamiyat va shaxs“ deb ataladi.

4-bo‘lim (XVI-XVII bob, 83-90-moddalar) „Ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi“ deb nomlangan.

5-bo‘lim (XVIII-XXVII bob, 91-153-moddalar) „Davlat hokimiyatining tashkil etilishi“ deb nomlangan.

6-bo‘lim (154-155-moddalar) „Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi“ deb ataladi.

Erkinlik va farovonlik kafolati

Konstitutsiya har bir fuqaroning erkin fikrlashi, o‘z qobiliyatini namoyon etishi, mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi uchun huquqiy zamin yaratadi.

Davlat esa ushbu huquqlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Shu boisdan ham Konstitutsiya — erkinlik garovi, ya’ni insonning o‘z hayot yo‘lini erkin tanlashiga imkon beruvchi qonundir.

Farovonlik esa — tinchlik, barqarorlik va qonun ustuvorligi mavjud bo‘lgan joyda yuzaga keladi. Konstitutsiyada xalq manfaatlari ustuvor qo‘yilganligi tufayli, har bir fuqaro tinch va farovon hayot kechirish imkoniga ega.

Konstitutsiya — bu shunchaki qonunlar to‘plami emas, balki xalqimizning irodasi, orzusi va kelajakka bo‘lgan ishonchidir.

Shuning uchun biz, yoshlar, uning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganib, unga sadoqat bilan amal qilishimiz zarur. Zero, Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimizning eng ishonchli kafolatidir.

Konstitutsiyada fuqarolarning yashash, ta’lim olish, mehnat qilish, fikr bildirish, e’tiqod tanlash kabi asosiy huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, unda davlat hokimiyati tizimi, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘llari belgilangan. Bu esa mamlakatda tinchlik, barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi**.**

Bugungi kunda Konstitutsiya O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi taraqqiyotining bosh mezoni bo‘lib xizmat qilmoqda. Unda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Har bir fuqaro so‘z, e’tiqod, ta’lim, mehnat va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega. Aynan shu huquq va imkoniyatlar jamiyatimizda erkinlik, barqarorlik va farovonlikni ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Konstitutsiya bizga tinchlik, adolat va qonun ustuvorligi muhitini yaratib beradi. Shu sababli uni chuqur o‘rganish, hurmat bilan munosabatda bo‘lish har bir fuqaroning, ayniqsa, yosh avlodning muqaddas burchidir. Chunki Konstitutsiya faqat hujjat emas — u xalqning orzusi, ezgu maqsadi va kelajakka bo‘lgan ishonchining ramzidir.

Shu boisdan ham bemalol aytish mumkinki, Konstitutsiya – bizning erkin va farovon hayotimizning eng ishonchli garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 21-dekabr soni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
4. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1992.
5. Abdullayev A.X., Tadjixodjayev S.S. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2020.
6. Rasulov X.R. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida Qonun. – www.lex.uz (rasmiy huquqiy axborot portali).
8. Jo‘rayev M. Inson huquqlari va fuqarolik erkinliklari kafolatlari. – Toshkent: “Adolat”, 2019.
9. “Konstitutsiya – xalq irodasining ifodasi” maqolasi. – Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2022-yil 8-dekabr soni.

ISSN 3030-3907